

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Pedagogika fakulteti dekani

_____ **R.V.Salomova**

“ ____ ” _____ 2026-yil

PSIXOLOGIK MA’LUMOTLARINI QAYTA ISHLASH
METODIKASI VA TEXNOLOGIYASI
FANINING O’QUV DASTURI
(kunduzgi ta’lim shakli)

Bilim sohasi:	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi:	310000- Ijtimoiy va xulq atvorga oid fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60310300 — Psixologiya

Mazkur o'quv dasturi Pedagogika fakulteti Kengashining 2026-yil ____-dagi ____-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur o'quv dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 15-apreldagi 142-buyrug'i asosida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining „Pedagogika va psixologiya“ kafedrasidan tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil ____dagi ____-sonli yig'ilish bayoni).

Tuzuvshilar:

R.E.Shukurov – DTPI, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida p.f.f.d., PhD

T.A.Yuldoshev- DTPI, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o'qituvchi

Taqrizchilar:

X.Sharofuddinova – TerDU, “Umumiy psixologiya” kafedrasida mudiri, psixologiya fanlari doktori, (DSc) dots.

1. Fan ma'lumotlari					
Fan/modul kodi PQM1306 (Bakalavriat)	O'quv yili 2026-2027	Semestr 3		ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	O'quv rejadagi tartib raqami 60310300- 1.13		Haftadagi mashg'ulot soatlari 3-semestrda 4 soat	
Fanning nomi Psixologik ma'lumotlarini qayta ishlash metodikasi va texnologiyasi	Jami yuklama (soat)	Auditoriya mashg'ulotlari jami- 180 soat, shundan:		Mustaqil ta'lim (soat)	Kurs ishi
		Ma'ruza	Amaliy		
	180	30	30	120	-

2.	Fanning mazmuni
So'nggi paytlarda psixodiagnostika sohasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda kompyuter usullaridan foydalanish tobora keng tarqalib bormoqda. Buning sabablaridan biri keng ko'lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishga, individual tarzda diagnostik ishlarni olib borishni tezlashtirish, osonlashtirishga imkon beruvchi tashxis metodikalarining kompyuter variantlarining yaratilishi bo'lsa, ikkinchisi, statistik tanlamalarning reprezentativligiga, ma'lumotlarning statistik tahlili negizida chiqarilgan xulosalarning asosililigiga talabning kuchayishidir. Taqdim etilayotgan kurs talabalarni Excel elektron jadvali, SPSS paketi bilan ishlashning umumiy tamoyillari bilan, shuningdek, psixolog mutaxassislarining amaliy va tadqiqiy ishlarida keng tarqalgan statistik tahlil metodlari bilan tanishtirishga yordam beradi. Shunday qilib, ushbu kurs talabaning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, tadqiqiy ma'lumotlar olish va ularni ilmiy talablarga binoan qayta ishlash metodlariga, to'g'ri, asosli ilmiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi. Fanning vazifasi - talabalarda matematik usullarda tadqiqiy ma'lumotlarni qayta ishlash, kompyuter yordamida tashxis qilish, tadqiqot natijalarini ilmiy tilda bayon qila olish bo'yicha amaliy va nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirishdan iborat. – psixologik tadqiqot natijalarini birlamchi statistik qayta ishlash bilan bog'liq asosiy matematik-statistik tushunchalar; – psixologik tadqiqot natijalarini ikkilamchi statistik tahlil etishga mo'ljallangan asosiy matematik-statistik mezonlarni qo'llashning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari;	

- psixologiya fanida tadqiqiy ma'lumotlarni tahlil etishning eng asosiy va ko'p qo'llaniladigan statistik mezonlari;
- empirik tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilishning asosiy bosqichlari va ularning mazmun-mohiyati;
- turli kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil etishga qaratilgan matematik va statistik metodlar
- hozirgi zamon axborot texnologiyalari va ularni psixologik amaliyotda qo'llash imkoniyatlarining taraqqiy etish tendentsiyalari;
- matematik statistika metodlarini izlash va ularni to'g'ri tanlash tamoyillari;
- psixologik tadqiqotlarda tuzilishida dasturiy ta'minot tushunchalari;
- dasturiy ta'minotlarni tanlash mezonlari;
- tadqiqot natijalarini matematik qayta ishlashning asosiy usullari;
- SPSS yordamida psixologik ma'lumotlarni qayta ishlash;
- birlamchi ma'lumotlar bazasini yaratishlari;

3.	Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar
1	Umumiy psixologiya UPS123424
2	Umumiy psixodiagnostika UPD13410
3	Eksperimental psixologiya EKP123416

4.	Ta'lim natijalari (TN)
TN1	- talabalarda matematik usullarda tadqiqiy ma'lumotlarni qayta ishlash, kompyuter yordamida tashxis qilish, tadqiqot natijalarini ilmiy tilda bayon qila olish bo'yicha amaliy va nazariy ma'lumotlar bilan qurollantirishdan iborat.
TN2	– psixologik tadqiqot natijalarini birlamchi statistik qayta ishlash bilan bog'liq asosiy matematik-statistik tushunchalar;
TN3	– psixologik tadqiqot natijalarini ikkilamchi statistik tahlil etishga mo'ljallangan asosiy matematik-statistik mezonlarni qo'llashning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari;
TN4	– turli kasbiy vazifalarni bajarish jarayonida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil etishga qaratilgan matematik va statistik metodlar
TN5	– hozirgi zamon axborot texnologiyalari va ularni psixologik amaliyotda qo'llash imkoniyatlarining taraqqiy etish tendentsiyalari;

	<i>Ko'nikmalar</i>
TN6	– psixologiya fanida tadqiqiy ma'lumotlarni tahlil etishning eng asosiy va ko'p qo'llaniladigan statistik mezonlari;
TN7	- empirik tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil qilishning asosiy bosqichlari va ularning mazmun-mohiyati; matematik statistika metodlarini izlash va ularni to'g'ri tanlash tamoyillar
TN8	– psixologik tadqiqotlarda tuzilishida dasturiy ta'minot tushunchalari; dasturiy ta'minotlarni tanlash mezonlari;
TN9	– tadqiqot natijalarini matematik qayta ishlashning asosiy usullari;
TN10	– SPSS yordamida psixologik ma'lumotlarni qayta ishlash; birlamchi ma'lumotlar bazasini yaratishlari;

2026-2027 o'quv yili 3-semestr

5	Fan mazmuni va mashg'ulotlar shakli:	Soat
	Ma'ruza (M)	30
M1	Matematik statistikaning asosiy tushunchalari. Matematik statistika, tavsiflovchi va induktiv statistika tushunchalari. Ko'plik haqida tushuncha. Bosh ko'plik, tanlama va reprezentativlik tushunchalari. O'lchov shkalalari, o'zgaruvchilar va ularning turlari.	2
M2	Ma'lumotlarni umumlashtirish va vizualizatsiya qilish (o'zgargan). Tahlil uchun ma'lumot manbalari. Ma'lumotlarni tashkil etish xususiyatlari. Statistik tahlil rejasi. Qayd etish uchn savollar. Ma'lumotlarni kodlashtirish usullari. Ma'lumotlarni kiritish usullari. Elektron jadvallardan ma'lumotlarni kiritish. O'zgaruvchilarning xususiyatlari. O'lchov shkalasi turini o'zgartirish. O'zgaruvchilarni belgilash. Qiymatlarni belgilash. Tushirib qoldirilgan qiymatlarni aniqlash. O'zgaruvchilarning boshqa xususiyatlari. O'zgaruvchilarning xususiyatlarini ko'chirish va joylashtirish.	2
M3	Ma'lumotlarni tavsiflash va ularning eng sodda tahlil metodlari. Variatsion qator tushunchasi. Variatsion qatorni tartiblash. Limit, ranjirovka, mediana, moda va kvartillar. Variatsion qatorni tasniflash. Natijalarni grafik usulda taqdim etish.	2
M4	Ehtimollar nazariyasi (o'zgargan). Normal taqsimlanish qonuni to'g'risida umumiy tushuncha. Moda, mediana va o'rtacha qiymat orasidagi o'zaro bog'liqlik. Dispersiya va standart og'ish. Variativlik koeffitsienti va standart xatoni hisoblash.	2

M5	Normal taqsimlanish parametrlarini baholashning statistik metodlari. Boksplot tuzish. Taqsimlanish asimmetriyasi va eksess ko'rsatkichlarini hisoblash. Empirik taqsimlanishning ehtimollar nazariyasi bilan bog'liqligi.	2
M6	Normal taqsimlanish nazariyasining tatbiqiy jihatlari. Standart normal taqsimlanish tushunchasi. Bosh ko'plik o'rtachasi uchun ishonchlilik chegaralari. Parametrik va noparametrik mezonlar to'g'risida umumiy tushuncha.	2
M7	Ma'lumotlarni statistik taqqoslash metodlarini tanlashning asosiy mezonlari. Variatsion qatorning normal taqsimlanishga mosligini aniqlash. Kolmogorov-Smirnov mezon. Ikki dispersiyaning gomogenligini aniqlash. Fisher mezon.	2
M8	T-testlari (o'zgargan). Parametrik va noparametrik ma'lumotlarni taqqoslash mezonlari. O'zaro bog'liq bo'lmagan guruhlarda <i>Styudent t</i> mezonini qo'llash. Dispersiyalar gomogenligi aniqlanganda ikki tanlamaning o'rtacha qiymatlarini taqqoslash. Dispersiyalar har xil, ammo tanlama hajmlari bir xil bo'lganda guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash. Dispersiyalari va tanlama hajmlari turlicha bo'lgan guruhlarining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash.	2
M9	O'zaro bog'liq bo'lmagan ikki tanlama uchun Mann-Uitni U mezon. O'zaro bog'liq bo'lmagan tanlamalar uchun Mann-Uitni U mezon. Mann-Uitni U mezonini qo'llash sohasi. Mann-Uitni U mezonini hisoblash jarayoni va formulasi. Mann-Uitni U mezon bo'yicha xulosa chiqarish qoidasi.	2
M10	Takroriy o'lchovlarda ikki tanlamani taqqoslash mezonlari. Takroriy o'lchovlar uchun <i>Styudent t</i> mezonini hisoblash. Juft o'zgaruvchilarni <i>Vilkokson</i> mezon yordamida o'zaro taqqoslash. Noparametrik takroriy o'lchovlarni o'zaro taqqoslash uchun ishoratlar <i>G</i> mezon.	2
M11	Noparametrik ma'lumotlar uchun "Xi-kvadrat" assotsiativ mezon. Xi-kvadrat noparametrik mezonini qo'llash shart-sharoitlari. Xi-kvadrat noparametrik mezonining turlari. Xi-kvadrat noparametrik mezonini hisoblash jarayoni va formulasi. Xi-kvadrat noparametrik mezon bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.	2
M12	Bir omilli dispersion tahlil mezon. Bir omilli dispersion tahlil mezonidan foydalanish tamoyillari. Bir omilli dispersion tahlil mezonini hisoblash jarayoni va formulasi. Bir omilli dispersion tahlil	2

	<i>mezoni bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.</i>	
M13	Kruskal-Uollis mezon. <i>Bir nechta bog'liq bo'lmagan tanlamalarni o'zaro taqqoslashning parametrik va noparametrik mezonlari. Kruskal-Uollis mezonidan foydalanish tamoyillari. Kruskal-Uollis mezonini hisoblash jarayoni va formulasi. Kruskal-Uollis mezon bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.</i>	2
M14	Korrelyatsiyaon tahlil mezonlari. <i>Parametrik va noparametrik ma'lumotlarning korrelyatsion tahlil mezonlari. Pirson korrelyatsiyasi mezonidan foydalanish tamoyillari. Pirson korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi. Pirson korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari. Spirman korrelyatsiyasi mezonidan foydalanish tamoyillari. Spirman korrelyatsiyasini hisoblash jarayoni va formulasi. Spirman korrelyatsiyasi bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.</i>	2
M15	Regression tahlil. <i>Regression tahlil mezon haqida umumiy tushuncha. Regression tahlil mezonidan foydalanish tamoyillari. Determinatsiya koeffitsienti tushunchasi. Regressiya tenglamasi va regression chiziqni aniqlash jarayoni va formulasi. Regression tahlil bo'yicha xulosa chiqarish qoidalari.</i>	2
	Amaliy mashg'ulot (A)	30
A 1	Matematik statistikaning asosiy tushunchalari.	2
A2	Excel va SPSS kompyuter dasturlarida ma'lumotlarni tashkil qilish.	2
A3	Ma'lumotlarni tavsiflash va ularning eng sodda tahlil metodlari.	2
A4	Excel va SPSS kompyuter dasturlarida markazga intilish va markazdan qochish tendensiyalarini aniqlash	2
A5	Normal taqsimlanish parametrlarini baholashning statistik metodlari	2
A6	Normal taqsimlanish nazariyasining tatbiqiy jihatlari.	2
A7	Ma'lumotlarni statistik taqqoslash metodlarini tanlashning asosiy mezonlari	2
A8	O'zaro bog'liq bo'lmagan ikki tanlamani taqqoslash uchun Styudent t mezon.	2
A9	O'zaro bog'liq bo'lmagan ikki tanlama uchun Mann-Uitni U mezon	2
A10	Takroriy o'lchovlarda ikki tanlamani taqqoslash mezonlari	2
A11	Noparametrik ma'lumotlar uchun "Xi-kvadrat" assotsiativ mezon	2
A12	Bir omilli dispersion tahlil mezon	2
A13	Kruskal-Uollis mezon	2
A14	Korrelyatsiyaon tahlil mezonlari	2
A15	Spirman korrelyatsiyasi haqida umumiy tushuncha.	2

6	Mustaqil ta'lim topshiriqlari*	120
1	Seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uy ishlarini bajarish, mustaqil ta'lim sifatida berilgan qisqa metrajli videoroliklarni ko'rib tahlil qilish.	60
2	Canva dasturi, Sun'iy intellektlar orqali taqdimot tayyorlash.	10
3	Test, krossvord, annagrama tayyorlash	10
4	Berilgan adabiyotni o'qib chiqish va tahlil qilish.	15
	- Alisher Umirdinov "Talaba do'stinga 78+ tavsiya". –Toshkent:Yuridik adabiyotlar publish, 2024-y. -224 bet. - Jon Kexo "G'ayri ixtiyoriy ong mo'jizalari". –T.: "DAVR PREES" HMU, 2021.-176 b.	
5	Axborot taxliliiy materiallar bilan ishlash: -scholar.google.com; -scopus.com; -diss.natlib.uz; -ziyonet.uz kabi xalqaro, mahalliy ilmiy bazalarda hamda institutning jurnali(https://t.me/tadbirkorlik_pedagogika)dan ilmiy maqolalarni izlab topish va tahlil qilish.	10
6	Case study (holat tadqiqoti) topshiriq: biron bir psixologik holatni tanlab, uning sabablarini, oqibatlarini va yechimlarini tahlil qiling.	15

*Izoh: Fan (modul) yuzasidan talabalar bajaradigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo'lishi lozim. Mustaqil ish topshiriqlarining 1/3 qismi kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash (kooperativlik)ga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

7.	Ta'lim texnologiyalari va metodlari
	➤ ma'ruzalar; ➤ amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; ➤ interfaol keys-stadilar; ➤ blis-so'rov; ➤ guruhlarda ishlash; ➤ taqdimotlarni qilish; ➤ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
8.	Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar
	Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

--	--

9. Talabala bilimini baholash mezoni a) 5 baho (90-100 ball) olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ✓ <i>Fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olsa;</i> ✓ <i>Fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;</i> ✓ <i>Fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasovvurga ega bo'lsa;</i> ✓ <i>Fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon etib olsa;</i> ✓ <i>Berilgan savollarga aniq va lo'nda javob berib olsa;</i> ✓ <i>Konspektgapuxta tayyorlangan bo'lsa;</i> ✓ <i>Mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;</i> Fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa; b) 4 baho (70-89 ball) olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ✓ <i>Fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;</i> ✓ <i>Fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;</i> ✓ <i>Fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;</i> ✓ <i>Fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob berib olsa;</i> Fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa; d) 3 baho (60-69 ball) olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim: ✓ <i>Fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;</i> ✓ <i>Fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmas;</i> ✓ <i>Bayon qilish ravon bo'lmas;</i> ✓ <i>Fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa; fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.</i> e) quyidagi hollarda talabani bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho (0-59 ball) bilan baholanishi mumkin: ✓ <i>Fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa;</i> ✓ <i>Fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasovvurga ega bo'lmas;</i> ✓ <i>Fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olinganligi sezilib tursa;</i> ✓ <i>Fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;</i> ✓ <i>Fanga doir berilgan savollarga javob olinmas;</i> <i>Fanni bilmas.</i>

T/r	Nazorat	Hisobga olinadigan mezonlar	Saralash ball
1	Oraliq nazorat 50 ball	ON – 20 ball Oraliq nazorat yozma shaklida o‘tkazilganda 25 ta variant 3 tadan savol (6,7,7 ball) dan iborat bo‘lsa quyidagicha baholanadi: 20-18 ball – “5” (a’lo) 17-15 ball – “4” (yaxshi) 14-12 ball – “3” (qoniqarli) 11 va undan kam ball bo‘lsa “2” (qoniqarsiz) Mustaqil ta’lim – 30 ball <i>Mustaqil ta’limga jami 6 ta bo‘limdan iborat bo‘lib:</i> 1-bo‘lim-15 ball; 2-bo‘lim 2-ball; 3-bo‘lim 2 ball; 4-bo‘lim 2 ball; 5-bo‘lim 4 ball; 6-bo‘lim 5 ball. <i>Umumiy 30 ball bilan baholanadi.</i>	30 ball
2	Yakuniy nazorat 50 ball	YaN – 50 ball Yakuniy nazorat test shaklida o‘tkazilib, variant 25 ta savol (har biri 2 ball) dan iborat bo‘ladi va quyidagicha baholanadi: 25-23 – “5” (a’lo) 22-19 – “4” (yaxshi) 18-15 – “3” (qoniqarli) 14 va undan kam bo‘lsa “2” (qoniqarsiz)	30 ball
Umumiy ball – 100 ball			60 ball
Akademik qarzidor talabalarni qayta o‘qitish tartibi 1. Guruh shaklida qayta o‘qitish. Har bir fan uchun ajratilgan auditoriya soatlarining 40% miqdorida soatlar belgilanadi. Dars jadvaliga muvofiq, dasturda ko‘rsatilgan mavzular intensive tarzda qayta o‘rgatiladi. 2. Individuallashtirilgan qayta o‘qitish. Har bir fan uchun ajratilgan auditoriya soatlarining 10% miqdorida soatlar ajratiladi. Talabalar o‘qituvchi rahbarligida dastur mavzulariga oid topshiriqlarni mustaqil bajaradilar.			

Mazkur o‘quv dasturi dunyoning e’tirof etilgan xalqaro QS va THE reytinglarida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta’lim tashkilotlarining ta’lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

(3-semestr bo‘yicha)

T/r	Fan nomi	Top-300 ga kirgan hamkor oliy ta’lim tashkilotlari (davlat nomi)	Top-300 ga (qs the arshu)dagi o’rni	Veb-link
1.	Methods and technologies of processing psychological research results	Columbia university (united states)	23	https://www.columbia.edu/

26. Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1	Sharafutdinova X.G., Jumayeva G.O’. Psixologik ma’lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari (o’quv qo’llanma)-2024-164b.
2	Muxammedova D.G, Salomova G.Sh “Psixologik tadqiqotlar ma’lumotlarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari” Darslik. T.: -2021y.
3	Howitt D., Cramer D. Introduction to SPSS Statistics in Psychology. For version 19 and earlier. 5th edition. Pearson Education Limited. 2011. — 624pp. https://dl1.cuni.cz/pluginfile.php/1746657/mod_resource/content/1/%20Dennis%20Howitt%2C%20Duncan%20Cramer%20-%20Introduction%20to%20Statistics%20in%20Psychology%2C%205th%20Edition%20%282011%2C%20Prentice%20Hall%29%20-%20libgen.li.pdf
4	Yuldoshev T.A. Umumiy psixologiya. O’quv qo’llanma. – T.: “Firdavs-shox”-2024y.

Qo‘shimcha adabiyotlar

4	Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
5	Mullaboyeva N.M., Psixologiyada matematik statistik metodlarni qo‘llash. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent.2012, Mumtoz so‘z-100 b.
6	Берк К., Кейри П. Анализ данных с помощью Microsoft Excel: Пер. с англ. — М.: Издательский дом "Вильямс", 2005. — 560 с.
7	Калинин С. И. Компьютерная обработка данных для психологов. — СПб.: Речь, 2002. — 134 с.

8	Аристова, О.Н. Специфика психологических методов в условиях использования компьютера / О.Н.Аристова, Л.Н.Бабинин, А.Е.Войскунский.- М.: изд-во Моск. ун-та, 1995. - 109 с.
9	Дюк, В.А. Компьютерная психодиагностика / В.А.Дюк.- СПб., изд-во "Братство", 1994.- 364 с.
10.	Калинин С. И. Компьютерная обработка данных для психологов. – СПб.: Речь, 2002. – 134 с.

12.	Axborot manbalari
1	https://unilibrary.uz/ — Yagona elektron kitob axborot tizimi
2	http://www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
3	http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Magtabgacha va maktab ta’limi vazirligi sayti.
4	https://elibrary.tdpu.uz/ — Nizomiy nomidagi O‘zbekistin Milliy pedagogika institute
5	http://magazine.mospsy.ru
6	https://www.apa.org/pubs/databases/psycinfo/index.aspx

Mazkur o‘quv dastur Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti dekanining “Bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari fanlari o’quv dasturlarining davlat ta’lim standartlariga moslash xususida” 27.08.2026 yildagi 01-F farmoyish asosida tashkil etilgan ekspert komissiyasida ko‘rib chiqildi.

**O'quv ishlari bo'yicha
dekan o'rinbosari:**

Sh.Bolliyev

Kafedra mudiri:

D.M.Boboqulova

Komissiya a’zolari:

A.R.To‘raqulov

P.M.Saidova

O‘qituvchilar:

T.A.Yuldoshev

